

GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YOSHLAR NUTQIDA TIL ARALASHUVI MUAMMOSI

Ne'matova Ruxshona Erkin qizi

O'zDJTU Sharq filologiyasi arab tili yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada globalizatsiya sharoitida yoshlarning nutqida til aralashuvi muammosi tahlil qilinadi. Maqolada zamonaviy yoshlar gapida o'zbek tili bilan boshqa tildagi so'zlar aralashuvi (code-switching) holatlari ko'rib chiqiladi, shuningdek, bu holat til madaniyati va nutq madaniyati nuqtai nazaridan baholanadi. Maqola globalizatsiya, kommunikativ madaniyat va tilning jamiyatdagi roli bilan bog'liq muammolarni yoritadi, shuningdek, nutq madaniyatini rivojlantirish va til aralashuvining ijobiy hamda salbiy jihatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: til aralashuvi, nutq madaniyati, globalizatsiya, yoshlar nutqi, code-switching

Abstract. This article analyzes the problem of language mixing in the speech of young people in the context of globalization. It examines cases of code-switching, where Uzbek is mixed with words from other languages in modern youth speech. The phenomenon is also evaluated from the perspective of language culture and speech culture. The article highlights issues related to globalization, communicative culture, and the role of language in society, and discusses both the positive and negative aspects of language mixing, as well as ways to develop speech culture.

Keywords: language mixing, speech culture, globalization, youth speech, code-switching

Аннотация. В данной статье анализируется проблема смешения языков в речи молодежи в условиях глобализации. Рассматриваются случаи переключения кодов (code-switching), при которых в речи современной молодежи узбекский язык смешивается с элементами других языков. Данное явление также оценивается с точки зрения языковой и речевой культуры. В статье освещаются проблемы, связанные с глобализацией, коммуникативной культурой и ролью языка в обществе, а также рассматриваются положительные и отрицательные стороны языкового смешения и пути развития речевой культуры.

Ключевые слова: смешение языков, речевая культура, глобализация, речь молодежи, переключение кодов

Kirish. Nutq madaniyati — bu og'zaki va yozma nutqda adabiy til me'yorlariga rioya qilish, til vositalaridan maqsadga mos va madaniyatli foydalanishdir. Bu tushuncha talaffuz, urg'u, so'z tanlash va grammatikani o'z ichiga oladi hamda insonning madaniy saviyasi va tilga ongli munosabatini ifodalaydi. Shu bois, nutq madaniyatini rivojlantirish tilshunoslik, ta'lim va muloqot sohalari uchun dolzarbdir.

Nutq madaniyati til amaliyotini tartibga soluvchi muhim yo'nalish bo'lib, adabiy norma va kommunikativ madaniyat bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, yoshlar nutqida ba'zan adabiy me'yorlar buzilib, boshqa tillardan olingan so'zlar aralashishi kuzatiladi. Nutq madaniyati normativlik, kommunikativlik va etik jihatlarini o'z ichiga oladi: adabiy me'yorlarga amal qilish, fikrni aniq va tushunarli yetkazish hamda muloqot madaniyatiga rioya etish. Bu yondashuv nutqni ijtimoiy faoliyat sifatida ko'rib, til, madaniyat va muloqotning uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Nutq madaniyati jamiyat

madaniyati bilan bog'liq holda shakllanadi. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda yoshlar nutqida o'zbek va boshqa tillar aralashuvi kuzatiladi, bu esa til madaniyati me'yorlariga ta'sir qiladi. Globalizatsiya sharoitida bu jarayon yanada kuchayib, mavzuning dolzarbligini oshiradi.

Asosiy qism. Til aralashuvi (code-switching) — bir nutqda ikki yoki undan ortiq tildan foydalanish hodisasi bo'lib, u tilshunoslikda bir nechta o'n yilliklardir ilmiy jihatdan o'rganilmoqda. Tarihda bu termin 20-asrning oxiri — 1970–80-yillarda tilshunoslar tomonidan tahlil qilingan va u nafaqat til xatosi, balki kommunikativ strategiya sifatida qaraladi. Masalan, Poplack ta'rificha, bu fenomen nutq ichida tillar o'rtasida almashtirish yoki aralashuvdir va u ko'pincha ijtimoiy kontekstga bog'liq tarzda yuz beradi. Shuni ta'kidlash kerakki, bu hodisa yoshlar nutqida ayniqsa internet va ijtimoiy tarmoqlar keng tarqala boshlagandan so'ng — 2000-yillar oxiridan boshlab tez-tez uchray boshladi, chunki global media, onlayn kommunikatsiya va chet tilini o'rganish yoshlar nutqiga bevosita ta'sir qilmoqda. Men kuzatganim shuki, bugungi kunda Telegram, Instagram yoki TikTok kabi platformalarda yoshlar doimiy ravishda inglizcha iboralar bilan o'zbekcha gaplarni aralastirib ishlatmoqda, bu esa til aralashuvi muammosini yanada ko'rsatmoqda.

Globalizatsiya va media ta'siri tufayli yoshlar butun dunyo bilan muloqot qiladi, va bu jarayonda ingliz tiliga juda ko'p duch keladi. Shu sababdan, inglizcha so'zlar, qisqartmalar va iboralar kundalik nutqimizga kirib bormoqda. Masalan, "online dars", "story qo'yish" yoki "deadline yaqin" kabi iboralar ko'plab yoshlar nutqida oddiy ifoda sifatida ishlatiladi. Ko'p tilli muhit ham til aralashuvining asosiy sabablaridan biridir. O'zbekiston kabi ko'p tilli mamlakatlarda yoshlar ruscha, inglizcha va o'zbekcha so'zlarni tez-tez almashtiradi, chunki bu til kontaktlar holati odatiy holga aylanadi. Ba'zan o'zbek tilida aynan ma'no bilan mos so'z topilmaganda yoki qisqaroq alternativ kerak bo'lganda, yoshlar inglizcha yoki ruscha so'zlarni ishlatadi — bu kommunikativ qulaylik strategiyasidir. Masalan, "presentation qilish" yoki "feedback berish" kabi iboralar kundalik nutqda ko'p uchraydi.

Yoshlar nutqida til aralashuvi odatda quyidagi kombinatsiyalarda uchraydi:

- O'zbek – Ingliz: Bu eng keng tarqalgan holat, chunki ingliz tili global til sifatida texnologiya, fan, madaniyat va ijtimoiy tarmoqlarda faol ishlatiladi.
- O'zbek – Rus: O'zbekiston kabi ko'p tilli mamlakatlarda rus tilining ham nutqda aralashuvi ko'p uchraydi, ayniqsa shaharlarda, universitetlarda va ommaviy kommunikatsiyada.

Ba'zi hollarda uchta til ham bir jumlada aralashib ketadi (masalan, o'zbekcha asosi + inglizcha texnik so'z + ruscha ibora). Bu holat ijtimoiy tarmoqlar va do'stlar orasida tilning kreativ ishlatilishi bilan bog'liq.

Til aralashuvi turi quyidagicha bo'lishi mumkin:

Intra-jumladagi til almashtirish — jumla ichida ikki til birga ishlatiladi. Jumladan keyin yangi tilga o'tish — bir tilli gapdan ikkinchi tilli gapga o'tadi. Bu holatlar ijtimoiy tarmoqlarda, suhbatlarda va hatto maktab/kollej nutqlarida ham kuzatiladi. Ularning semantik yoki pragmatik funksiyasi mavjud — ma'no kuchaytirish, emotsiyani ifodalash yoki o'z identitetini ko'rsatish. Masalan, biror yosh do'stiga "Bugun presentationim bor, juda stress bo'ldim" deb aytganda, inglizcha so'z orqali mavzuning jiddiyligini ifodalayapti, bu esa nutq madaniyati kontekstida ham e'tiborga olinadi. Shu sababli, globalizatsiya sharoitida yoshlar nutqida til aralashuvi nafaqat tilning tabiiy

rivojlanishi sifatida qaraladi, balki til madaniyati me'yorlariga e'tibor qaratishni talab qiladigan dolzarb muammo hisoblanadi. Bu holat tilshunoslik va pedagogika sohalarida izlanishlarni davom ettirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa. Globalizatsiya sharoitida yoshlar nutqida til aralashuvi (code-switching) keng tarqalgan hodisaga aylandi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn muloqotda bu jarayon o'zbek yoshlari nutqida ham ko'p uchraydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, til aralashuvi yoshlarning kommunikativ ehtiyojidan kelib chiqadi, biroq u adabiy til me'yorlariga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, uni boshqarish muhimdir. Eng samarali yechim — nutq madaniyatini mustahkamlash va kommunikativ kompetensiyani oshirishdir. Nutq madaniyati shakllangan shaxs til me'yorlarini ongli qo'llab, aralashuvni nazorat qiladi. Shu bois, ta'lim muassasalarida bu yo'nalishda maxsus mashg'ulotlar tashkil etilishi zarur. Til o'rgatish jarayonida til aralashuvi tahlilini qo'llash ham samarali usuldir. Nutq namunalari tahlil qilish yoshlarni aralashuvni anglash va uni adabiy norma asosida to'g'rilashga o'rgatadi. Shuningdek, ijtimoiy media orqali o'zbek tilida sifatli nutqni targ'ib qilish ham muhim. Toza va aniq nutq namunalari ko'payishi yoshlar nutqiga ijobiy ta'sir qiladi. Shaxsiy fikrimcha, til aralashuvini butunlay yo'q qilish shart emas, ammo uning miqdori va qo'llanishini nazorat qilish zarur. Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyatini rivojlantirish va adabiy me'yorlarga amal qilish orqali yoshlar nutqidagi til aralashuvi muammosini kamaytirish mumkin. Bu esa tilimiz rivoji va milliy madaniyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdukarimov, B. (2018). Nutq madaniyati nazariyasi. Toshkent: Akademiya.
2. Poplack, S. (1980). Sometimes I'll start a sentence in Spanish y termino en español: Toward a typology of code-switching. *Linguistics*, 18(7-8), 581–618. <https://doi.org/10.1515/ling.1980.18.7-8.581> □
3. Qodirov, A. (2010). O'zbek tili va nutq madaniyati. Toshkent: Fan.
4. Raxmonov, Sh. (2015). Til va madaniyat. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashri.
5. Toshmuhamedov, R. (2015). O'zbek tilining nutq madaniyati. Toshkent: Akademiya.